INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.4 №11 (2026). NOVEMBER
innovativepublication.uz

STATE OBLIGATIONS UNDER INTERNATIONAL ENVIRONMENTAL LAW: THE PRINCIPLE OF DUE DILIGENCE IN PREVENTING TRANSBOUNDARY ENVIRONMENTAL HARM

Abdullayev Sunnat Nurulla o‘g‘li
Sarbon University,Jurisprudence,Second-Year Student
Ne’matullayev Sarvarxon Nodir o‘g‘li
Sarbon University,Field of Study: Jurisprudence,First-Year Student

Abstract: This article examines the international legal obligations of states to prevent transboundary environmental harm under international environmental law, as well as the meaning and essence of the principle of due diligence. Under international environmental law, states are required to exercise control over industrial facilities operating within their territories. Accordingly, states must develop and implement all necessary measures to ensure that various environmentally harmful emissions and waste generated by their industrial facilities do not adversely affect the environment of neighbouring states. This article also discusses international treaties, laws, and regulations concerning the principle of due diligence, particularly the establishment of conditions necessary for environmental protection. Furthermore, it examines the essential monitoring mechanisms and projects aimed at preventing transboundary environmental damage. In this regard, states are required to cooperate with one another and carry out environmental monitoring activities to prevent potential environmental harm and ensure environmental security.

Keywords: International Environmental Law, Due Diligence, Transboundary Environmental Harm, Environmental Security, Environmental Impact Assessment, International Cooperation, Environmental Monitoring.

XALQARO EKOLOGIK HUQUQDA DAVLATLARNING MAJBURIYATLARI: TRANSCHEGARAVIY EKOLOGIK ZARARNING OLDINI OLISHDA LOZIM DARAJADAGI EHTIYOTKORLIK (DUE DILIGENCE) PRINSIPI.

Abdullayev Sunnat Nurulla o‘g‘li
Sarbon universiteti,“Yurisprudensiya” ta’lim yo‘nalishi,2-bosqich talabasi
Ne’matullayev Sarvarxon Nodir o‘g‘li

Sarbon universiteti,“Yurisprudensiya” ta’lim yo‘nalishi, 1-bosqich talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro ekologik huquqda davlatlarning transchegaraviy ekologik zararning oldini olishga qaratilgan xalqaro-huquqiy majburiyatlari hamda lozim darajadagi ehtiyotkorlik (Due Diligence) prinsipining mazmun va mohiyati bo'yicha tahil qilinadi. Xalqaro ekologik huquqda davlatlar o'z hududidagi ishlab chiqarish fabrikalarini nazorat qilishi lozim bo'ladi. Bunga ko'ra davlat o'zining fabrikalaridan chiqayotgan turli xil ekologiyaga zarar yetkazuvchi chiqindilarini qo'shni davlat ekologiyasiga o'z ta'sirini o'tkazmasligi uchun har qanday chora tadbirlarini ishlab chiqilgan bo'linadi. Bu maqolada xalqaro ekologiya bo'yicha "Due Diligence" ya'ni ekologiya uchun zarur bo'lgan shart sharoitlar haqida rasmiy shartnomalar hamda qonun va farmonlar kiritilgan. Shuningdek, transchegaraviy ekologik zararning oldini olish bo'yicha kerakli nazorat va uning oldini olishga qaratilgan loyihalar mavjud. Davlatlar bu bo'yicha bir birlari bilan hamkorlik qilishi va monitoring ishlarni olib boradi.

Kalit so'zlar: Xalqaro ekologik huquq, Due Diligence, transchegaraviy ekologik zarar, ekologik xavfsizlik, ekologik ta'sirni baholash, xalqaro hamkorlik, ekologik monitoring.

Аннотация: В данной статье анализируются содержание и сущность международно-правовых обязательств государств в международном экологическом праве, направленных на предотвращение трансграничного экологического ущерба, а также принцип должной осмотрительности (Due Diligence). Согласно международному экологическому праву, государства обязаны осуществлять контроль над производственными предприятиями, расположенными на их территории. В соответствии с этим государства должны разрабатывать все необходимые меры для того, чтобы различные вредные для окружающей среды выбросы, исходящие от их предприятий, не оказывали негативного воздействия на экологию соседних государств. В данной статье рассматриваются официальные соглашения, законы и постановления, касающиеся принципа «Due Diligence», то есть необходимых условий для защиты окружающей среды. Кроме того, существуют необходимые механизмы контроля и проекты, направленные на предотвращение трансграничного экологического ущерба. В этом направлении государства сотрудничают друг с другом и проводят мониторинговые мероприятия.

Ключевые слова: международное экологическое право, Due Diligence, трансграничный экологический ущерб, международные обязательства государств, экологическая безопасность, принцип предотвращения, оценка воздействия на окружающую среду, международное сотрудничество,

экологический мониторинг.

Kirish: Hozirga kelib XXI asrda ekologik muammo yer yuzidagi barcha davlatlarning insoniyat oldidagi global muammosiga aylanib ulgurdi. Bu muammoga albatta keng tarmoqli faktli asoslar bor. Ekologiyada bo'layotgan buzilish ulkan hayvonlar, dengiz jonivorlari, qushlar hamda kichik bo'lgan hasharotlar uchun ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Yer yuzidagi qalin qatlamli muzlarning erib ketishi, daryo va dengiz suvlarining nazoratsizligi, kuchli yog'ingarchiliklar hamda daraxt va o'simliklarga ziyon yetkazilishi bu barchasi albatta bir biriga chambarchars bog'likligi bor. Ayniqsa, transchegaraviy ekologik zarar muammosi xalqaro huquqning muhim tartibga solish obyektlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Transchegaraviy ekologik zarar deganda bir davlat hududida amalga oshirilayotgan faoliyat natijasida boshqa davlat hududida yoki milliy yurisdiksiyadan tashqaridagi hududlarda ekologik salbiy oqibatlarning yuzaga kelishi tushuniladi. Masalan, bir davlat hududidagi sanoat korxonalaridan chiqayotgan zararli gazlarning qo'shni davlat atmosferasiga tarqalishi, xalqaro daryolarning ifloslanishi yoki transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish jarayonida boshqa davlatlarning ekologik manfaatlariga zarar yetkazilishi ushbu holatga misol bo'la oladi. Bunday muammo oldida "Due Diligence" ya'ni lozim darajadagi ehtiyotkorlik prinsipi bo'yicha loyihalarning ilgari surilishi hamda bu bo'yicha harakatlar olib borilishi muammoning yechimiga sabab bo'ladi. Ushbu prinsip davlatdan o'z hududida yoki yurisdiksiyasi ostida amalga oshirilayotgan faoliyatlar ekologik zarar keltirib chiqarmasligi uchun barcha oqilona va zarur choralarni ko'rishni talab qiladi. Davlat bu prinsip bo'yicha har qanday ekologik muammoni oldini olishni o'z zimmasiga yuklamaydi. Aksincha, davlat mavjud imkoniyatlari, ilmiy-texnik salohiyati va xavf darajasini hisobga olgan holda zararning oldini olish uchun yetarli choralarni ko'rishi lozim. Mavzuning dolzarbligi shundaki, Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O'zbekiston Respublikasi uchun transchegaraviy ekologik xavfsizlik alohida ahamiyatga ega. Amudaryo va Sirdaryo havzalaridan foydalanish, Orol dengizi ekologik inqirozi, atmosfera havosining ifloslanishi hamda suv resurslarini taqsimlash masalalari davlatlar o'rtasida samarali ekologik hamkorlikni talab qiladi.

Adabiyotlar tahlili: Xalqaro ekologik huquqda Due Diligence prinsipining shakllanishi va rivojlanishi ko'plab xalqaro huquqshunos olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Ushbu masala xalqaro shartnomalar, xalqaro sud qarorlari va ilmiy adabiyotlar asosida bosqichma-bosqich rivojlangan.

Birinchidan, xalqaro ekologik huquq sohasidagi taniqli olim Philippe Sands o'zining

Principles of International Environmental Law asarida davlatlarning tabiiy resurslardan foydalanishdagi suveren huquqlari boshqa davlatlarning ekologik manfaatlariga zarar yetkazmaslik majburiyati bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaydi. Olimning yondashuvida transchegaraviy zararning oldini olish xalqaro ekologik huquqning asosiy tamoyillaridan biri sifatida qaraladi.

Ikkinchidan, Patricia Birnie, Alan Boyle va Catherine Redgwell hammuallifligidagi *International Law and the Environment* asarida xalqaro ekologik huquq normalari, davlatlarning ekologik majburiyatlari va xalqaro hamkorlik masalalari batafsil tahlil qilingan. Mualliflar ekologik muammolarni faqat milliy qonunchilik doirasida hal etish yetarli emasligini, davlatlararo hamkorlik muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslaydilar.

Uchinchidan, David Hunter, James Salzman va Durwood Zaelke tomonidan tayyorlangan *International Environmental Law and Policy* asarida transchegaraviy ekologik muammolarni hal etishning huquqiy va siyosiy mexanizmlari yoritilgan. Mualliflar davlatlarning ekologik xavflarni oldindan aniqlashi, baholashi va tegishli tartibga solish choralarini amalga oshirishiga alohida e’tibor qaratadilar.

To‘rtinchidan, Alexandre Kiss va Dinah Shelton xalqaro ekologik huquqning rivojlanishi, ekologik javobgarlik va davlatlarning xalqaro majburiyatlarini o‘rgangan. Ularning ilmiy qarashlarida ekologik zararning oldini olish va davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik xalqaro ekologik tartibning muhim asoslari sifatida namoyon bo‘ladi.

Beshinchidan, BMT Xalqaro huquq komissiyasining 2001-yilda ishlab chiqilgan *Draft Articles on Prevention of Transboundary Harm from Hazardous Activities* hujjati ushbu mavzuni o‘rganishda muhim huquqiy manba hisoblanadi. Hujjatning 3-moddasida davlatlar xavfli faoliyatlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan jiddiy transchegaraviy zararning oldini olish yoki uning xavfini kamaytirish uchun barcha tegishli choralarni ko‘rishi lozimligi belgilangan.

Oltinchidan, 1941-yildagi *Trail Smelter Arbitration* ishi xalqaro ekologik huquqda transchegaraviy zarar uchun davlatlarning javobgarligi masalasining shakllanishida muhim o‘rin egallaydi. Mazkur ishda Kanada hududidagi sanoat korxonasi faoliyati natijasida AQSH hududiga yetkazilgan ekologik zarar ko‘rib chiqilgan. Ushbu arbitraj qarori davlat o‘z hududidan boshqa davlatga jiddiy zarar yetkazadigan tarzda foydalanishga yo‘l qo‘ymasligi lozimligi haqidagi yondashuvning rivojlanishiga asos bo‘lgan.

Yettinchidan, Xalqaro sudning 1997-yildagi *Gabčíkovo-Nagymaros Project* ishi ekologik muhofaza va barqaror rivojlanish o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur ishda iqtisodiy rivojlanish jarayonida ekologik

manfaatlarni ham hisobga olish zarurligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Sakkizinchidan, Xalqaro sudning 2010-yildagi *Pulp Mills on the River Uruguay* ishi Due Diligence prinsipining amaliy mazmunini ochib beruvchi muhim sud amaliyotidir. Sud transchegaraviy ekologik zarar xavfi mavjud bo‘lgan faoliyatni boshlashdan oldin ekologik ta’sirni baholash zarurligini ta’kidlagan.

To‘qqizinchidan, Xalqaro sudning 2015-yildagi *Certain Activities Carried Out by Nicaragua in the Border Area* va *Construction of a Road in Costa Rica along the San Juan River* ishlari ekologik ta’sirni baholash va davlatlarning ehtiyotkorlik majburiyatlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

O‘ninchidan, Neil Craik o‘zining *The International Law of Environmental Impact Assessment* asarida ekologik ta’sirni baholashning xalqaro-huquqiy asoslari, transchegaraviy ekologik xavflarni aniqlash va davlatlar o‘rtasida maslahatlashuvlar o‘tkazish masalalarini tadqiq qilgan.

O‘n birinchidan, André Nollkaemper xalqaro huquqda davlatlarning ekologik zarar uchun javobgarligi va xalqaro huquq normalarining qo‘llanilishi masalalarini o‘rgangan. Uning ilmiy yondashuvi davlatlarning ekologik majburiyatlarini xalqaro javobgarlik instituti bilan bog‘liq holda o‘rganish imkonini beradi.

O‘n ikkinchidan, 2024-yil 21-mayda Xalqaro dengiz huquqi tribunali tomonidan berilgan iqlim o‘zgarishi va xalqaro huquqqa oid maslahat xulosasida davlatlarning dengiz muhitini muhofaza qilish borasidagi majburiyatlari, lozim darajadagi ehtiyotkorlik standarti va ilmiy ma’lumotlarning ahamiyati yoritilgan.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xalqaro ekologik huquqda Due Diligence prinsipi yetarlicha ilmiy o‘rganilgan bo‘lsa-da, uni amaliyotga tatbiq etish, davlatlarning ekologik xavflar to‘g‘risida axborot almashinuvi va transchegaraviy ekologik nazorat mexanizmlarini takomillashtirish masalalari hanuz dolzarb hisoblanadi.

Metodolgiya: Mazkur ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida xalqaro ekologik huquqda davlatlarning transchegaraviy ekologik zararning oldini olish bo‘yicha majburiyatlarini o‘rganish, Due Diligence prinsipining huquqiy mohiyatini ochib berish hamda mavjud muammolarga ilmiy asoslangan yechimlar ishlab chiqish maqsadida bir nechta ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil usuli: orqali Due Diligence prinsipining mazmuni, uning asosiy tarkibiy qismlari va davlatlar zimmasiga yuklaydigan xalqaro-huquqiy majburiyatlari alohida qismlarga ajratilgan holda o‘rganildi. Xususan, ekologik xavflarni oldindan aniqlash, ekologik ta’sirni baholash, monitoring olib borish va transchegaraviy zararning oldini olish mexanizmlari tahlil qilindi.

Sintez usuli: Yordamida xalqaro ekologik huquq normalari, ilmiy adabiyotlar va xalqaro sud amaliyotida keltirilgan ma’lumotlar o‘zaro birlashtirilib, Due Diligence prinsipining davlatlar ekologik majburiyatlarini ta’minlashdagi umumiy ahamiyati yuzasidan xulosalar shakllantirildi.

Qiyosiy tahlil usuli: Orqali 1972-yilgi Stokgolm deklaratsiyasi, 1992-yilgi Rio deklaratsiyasi va BMT Xalqaro huquq komissiyasining 2001-yildagi transchegaraviy zararning oldini olishga oid hujjatidagi huquqiy qoidalar o‘zaro taqqoslandi. Shuningdek, Xalqaro sudning *Trail Smelter Arbitration*, *Pulp Mills on the River Uruguay* va boshqa tegishli ishlaridagi huquqiy yondashuvlar o‘rganildi.

Induksiya usuli: Asosida xalqaro sudlar tomonidan ko‘rib chiqilgan alohida ekologik nizolar va ularda shakllangan huquqiy xulosalar umumlashtirilib, davlatlarning transchegaraviy ekologik zararning oldini olish bo‘yicha umumiy majburiyatlari aniqlandi.

Deduksiya usuli: Yordamida xalqaro ekologik huquqning umumiy prinsiplari va normalaridan kelib chiqib, muayyan davlatlarning ekologik xavflarni baholash, boshqa davlatlarni xabardor qilish hamda zarur ehtiyot choralarini ko‘rish majburiyatlari o‘rganildi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish usuli: Orqali xalqaro ekologik huquq sohasida faoliyat olib borgan olimlarning ilmiy asarlari, maqolalari va tadqiqotlari o‘rganildi. Jumladan, transchegaraviy ekologik zarar, davlatlarning xalqaro javobgarligi va Due Diligence prinsipiga oid mavjud ilmiy qarashlar tahlil qilinib, ushbu yo‘nalishda yetarlicha o‘rganilmagan masalalar aniqlandi.

Hujjatlarni tahlil qilish usuli: Orqali xalqaro konvensiyalar, deklaratsiyalar, xalqaro sud qarorlari va boshqa huquqiy hujjatlar o‘rganildi. Bu orqali davlatlarning ekologik xavfsizlikni ta’minlash borasidagi xalqaro majburiyatlarining huquqiy asoslari aniqlandi.

Huquqiy tahlil usuli: Yordamida xalqaro ekologik huquq normalari va davlatlarning transchegaraviy ekologik zararning oldini olishga qaratilgan majburiyatlari huquqiy jihatdan baholandi. Xususan, Due Diligence prinsipining xalqaro huquqdagi o‘rni, uning mazmuni va amaliy qo‘llanilish xususiyatlari o‘rganildi.

Sabab-oqibat tahlili usuli: Orqali davlatlar tomonidan ekologik nazoratning yetarli darajada amalga oshirilmasligi, ekologik axborot almashinuvining sustligi va transchegaraviy ekologik ta’sirni baholashdagi kamchiliklarning qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi o‘rganildi.

Tizimli tahlil usuli: Asosida Due Diligence prinsipi ekologik xavfsizlik, xalqaro hamkorlik, ekologik monitoring, oldindan xabardor qilish va ekologik ta’sirni baholash

kabi o‘zaro bog‘liq huquqiy mexanizmlar bilan yaxlit tizim sifatida tadqiq etildi. Yuqoridagi ilmiy tadqiqot usullaridan kompleks foydalanish natijasida xalqaro ekologik huquqda Due Diligence prinsipining amaliy ahamiyati ochib berildi, davlatlarning transchegaraviy ekologik zararning oldini olish borasidagi majburiyatlariga oid mavjud muammolar aniqlandi hamda ularni bartaraf etish yuzasidan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Xalqaro ekologik huquqda Due Diligence prinsipi davlatlarning o‘z hududida yoki yurisdiksiyasi ostida amalga oshirilayotgan faoliyat ustidan zarur nazoratni ta’minlash majburiyatini anglatadi. Ushbu prinsipning muhim jihati shundaki, davlat faqat ekologik zarar yuzaga kelganidan keyin javobgarlik choralarini ko‘rish bilan cheklanmasligi, balki zarar yuzaga kelishidan oldin uning oldini olishga qaratilgan choralarni amalga oshirishi kerak. 1972-yilgi BMTning Inson atrof-muhitiga bag‘ishlangan Stokgolm deklaratsiyasining 21-prinsipida davlatlarning tabiiy resurslardan foydalanish bo‘yicha suveren huquqlari bilan bir qatorda, boshqa davlatlar va milliy yurisdiksiyadan tashqaridagi hududlarga ekologik zarar yetkazmaslik mas’uliyati ham belgilangan. 1992-yilgi Rio deklaratsiyasining 2-prinsipida ham ushbu qoida qayta mustahkamlangan. BMT Xalqaro huquq komissiyasining 2001-yildagi transchegaraviy zararning oldini olishga oid hujjatining 3-moddasiga muvofiq, davlatlar xavfli faoliyat natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan jiddiy transchegaraviy zararning oldini olish yoki uning xavfini kamaytirish uchun barcha tegishli choralarni ko‘rishi shart. Bu yerda muhim jihat shundaki, Due Diligence majburiyati natijaga emas, balki davlat tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan xatti-harakatlarga qaratilgan majburiyat hisoblanadi. Ya’ni davlat barcha zarur va oqilona ehtiyot choralarini ko‘rgan bo‘lsa-yu, shunga qaramay ekologik zarar yuzaga kelsa, bu holatning o‘zi avtomatik ravishda davlatning xalqaro javobgarligini anglatmaydi. Biroq davlat xavfni oldindan bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan holda tegishli choralarni ko‘rmagan bo‘lsa, xalqaro majburiyatlarning buzilishi masalasi yuzaga kelishi mumkin.

Muammo: Ayrim davlatlarda sanoat korxonalari, konchilik obyektlari va boshqa ekologik xavf tug‘diruvchi faoliyatlar ustidan nazorat mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmagan. Natijada ekologik xavflar o‘z vaqtida aniqlanmaydi va transchegaraviy zarar yuzaga kelish ehtimoli ortadi.

Mavjud huquqiy yechim: Xalqaro huquqda Stokgolm deklaratsiyasi, Rio deklaratsiyasi va BMT Xalqaro huquq komissiyasining 2001-yildagi hujjati orqali davlatlarning oldini olish majburiyati belgilangan.

Muallifning taklifi: Davlatlar milliy qonunchilikda ekologik xavfi yuqori bo‘lgan

faoliyatlar uchun majburiy monitoring, ekologik audit va muntazam xavfni baholash tizimini kuchaytirishi lozim. Shuningdek, ekologik xavfsizlik talablariga rioya etmagan korxonalar uchun samarali javobgarlik mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiq.

Transchegaraviy ekologik ta’sirni baholash va oldindan xabardor qilish muammosi

Due Diligence prinsipining muhim tarkibiy qismlaridan biri ekologik ta’sirni oldindan baholash hisoblanadi. Agar bir davlat hududida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan loyiha boshqa davlatning ekologik holatiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatish xavfiga ega bo‘lsa, loyiha boshlanishidan oldin uning ekologik oqibatlari o‘rganilishi zarur. Bu borada Xalqaro sudning 2010-yildagi *Pulp Mills on the River Uruguay* ishi alohida ahamiyatga ega. Mazkur ish Argentina va Urugvay davlatlari o‘rtasidagi xalqaro daryodan foydalanish hamda Urugvay hududida qog‘oz ishlab chiqarish korxonalarining qurilishi bilan bog‘liq edi. Argentina mazkur korxonalar faoliyati Urugvay daryosining ekologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini bildirgan. Xalqaro sud ushbu ishda davlatning transchegaraviy zarar xavfi mavjud bo‘lgan faoliyatni amalga oshirishdan oldin ekologik ta’sirni baholash majburiyatini umumiy xalqaro huquqning muhim talabi sifatida e’tirof etgan. Shuningdek, sud ekologik ta’sirni baholash faqat dastlabki bosqich bilan cheklanmasligi, zaruratga qarab loyiha amalga oshirilayotgan davrda ham ekologik holat monitoring qilinishi kerakligini ta’kidlagan.

Muammo: Ayrim yirik iqtisodiy loyihalar amalga oshirilishidan oldin ularning qo‘shni davlatlar ekologiyasiga ta’siri yetarlicha baholanmaydi. Bundan tashqari, ekologik baholash natijalari boshqa manfaatdor davlatlarga o‘z vaqtida taqdim etilmasligi mumkin.

Mavjud huquqiy yechim: Xalqaro sudning *Pulp Mills* ishi ekologik ta’sirni baholash majburiyatini rivojlantirgan. Shuningdek, 1991-yilgi Espoo konvensiyasi transchegaraviy ekologik ta’sirni baholash va manfaatdor davlatlarni xabardor qilish masalalarini tartibga soladi.

Muallifning taklifi: Transchegaraviy ekologik ta’sirga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan yirik loyihalar uchun qo‘shni davlatlar ishtirokida qo‘shma ekologik baholash tizimini yaratish lozim. Baholash natijalari ochiq e’lon qilinishi, manfaatdor davlatlarga oldindan yuborilishi va jamoatchilik muhokamasi tashkil etilishi kerak. Bundan tashqari, transchegaraviy ekologik ta’sirni baholash natijalarining xalqaro standartlarga muvofiqligini tekshiruvchi mustaqil ekspertlar guruhini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Davlatlar o‘rtasida ekologik axborot almashinuvi va xalqaro hamkorlik muammosi

Transchegaraviy ekologik zararning oldini olishda davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Chunki ekologik muammolar ko‘pincha bir davlat hududi bilan cheklanib qolmaydi. Masalan, xalqaro daryolarning ifloslanishi, atmosfera havosining transchegaraviy ifloslanishi va cho‘llanish jarayonlari bir nechta davlatlarning ekologik manfaatlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu sababli davlatlar ekologik xavflar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z vaqtida almashishi, yuzaga kelayotgan tahdidlar haqida bir-birini ogohlantirishi va zarur hollarda birgalikda choralar ko‘rishi lozim. 1992-yilgi BMTning Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko‘llarni muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish to‘g‘risidagi konvensiyasi hamda 1992-yilgi Rio deklaratsiyasi davlatlararo ekologik hamkorlikning muhim huquqiy asoslarini shakllantirgan. O‘zbekiston uchun ushbu masala ayniqsa dolzarbdir. Chunki mamlakatimizning suv resurslari va ekologik xavfsizligi Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari bilan bevosita bog‘liq. Xususan, Amudaryo va Sirdaryo suv resurslaridan oqilona foydalanish, Orolbo‘yi mintaqasidagi ekologik vaziyatni yaxshilash hamda transchegaraviy suv ifloslanishining oldini olish davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni talab qiladi.

Muammo: Davlatlar o‘rtasida ekologik axborot almashinuvi doimo ham tezkor va samarali tashkil etilmagan. Ayrim hollarda ekologik xavf yuzaga kelgani haqidagi ma’lumotlar boshqa davlatlarga kech yetkaziladi. Bu esa zararning oldini olish imkoniyatlarini cheklaydi.

Mavjud huquqiy yechim: Xalqaro ekologik huquqda xabardor qilish, maslahatlashuvlar o‘tkazish va hamkorlik qilish majburiyatlari turli xalqaro hujjatlarda mustahkamlangan. Xususan, 1992-yilgi Rio deklaratsiyasining 19-prinsipi davlatlarning transchegaraviy ekologik ta’sirga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan faoliyatlar haqida boshqa davlatlarni oldindan xabardor qilishi va maslahatlashuvlar o‘tkazishi zarurligini nazarda tutadi.

Muallifning taklifi: Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida yagona mintaqaviy ekologik axborot almashinuvi platformasini tashkil etish lozim. Ushbu platforma orqali transchegaraviy suvlarning ifloslanishi, atmosfera havosi sifati, ekologik xavfli ishlab chiqarish obyektlari va tabiiy ofatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar muntazam almashib borilishi kerak. Shuningdek, favqulodda ekologik vaziyatlarda davlatlar o‘rtasida tezkor xabar berish mexanizmini shakllantirish, qo‘shma ekologik monitoring guruhlarini tashkil etish va muntazam xalqaro maslahatlashuvlarni yo‘lga qo‘yish zarur.

Due Diligence prinsipining xalqaro sud amaliyotidagi rivojlanishi

Due Diligence prinsipining xalqaro ekologik huquqdagi mazmuni xalqaro sudlar va arbitraj organlari faoliyati davomida yanada rivojlanib borgan. 1941-yildagi *Trail Smelter* arbitraj ishi ushbu yo‘nalishdagi dastlabki muhim qarorlardan biri hisoblanadi. Mazkur ishda davlatlarning o‘z hududidagi faoliyat natijasida boshqa davlatga jiddiy ekologik zarar yetkazmaslik majburiyati masalasi ko‘rib chiqilgan. 1997-yildagi *Gabčíkovo-Nagymaros Project* ishida Xalqaro sud ekologik muhofaza va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash zarurligiga e’tibor qaratgan. 2010-yildagi *Pulp Mills* ishida esa ekologik ta’sirni baholash va monitoring qilish Due Diligence majburiyatining muhim tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo‘lgan. 2015-yildagi Kosta-Rika va Nikaragua o‘rtasidagi ishlar ham davlatlarning ekologik xavflarni oldindan baholash va zarur ehtiyot choralarini ko‘rish majburiyatlarini rivojlantirgan.

Shuningdek, 2024-yil 21-mayda Xalqaro dengiz huquqi tribunali tomonidan berilgan maslahat xulosasida davlatlarning dengiz muhitini himoya qilish borasidagi majburiyatlari hamda lozim darajadagi ehtiyotkorlik talablari yoritilgan.

Mazkur xalqaro sud amaliyotidan kelib chiqib, Due Diligence prinsipining quyidagi asosiy tarkibiy qismlarini ajratish mumkin:

1. Ekologik xavflarni oldindan aniqlash va baholash.
2. Ekologik zarar yuzaga kelishining oldini olishga qaratilgan qonunchilik choralarini ko‘rish.
3. Xavfli faoliyatlar ustidan samarali davlat nazoratini amalga oshirish.
4. Ekologik monitoring va muntazam tekshiruvlarni tashkil etish.
5. Manfaatdor davlatlarni xabardor qilish va ular bilan maslahatlashish.
6. Ekologik xavf yuzaga kelgan taqdirda tezkor choralar ko‘rish.

Shunday qilib, Due Diligence prinsipi xalqaro ekologik huquqda davlatlarning shunchaki deklarativ majburiyati emas, balki amaliy faoliyatida namoyon bo‘lishi kerak bo‘lgan huquqiy talab hisoblanadi.

Xulosa: Yuqoridagi tahlillar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, xalqaro ekologik huquqda Due Diligence prinsipi davlatlarning transchegaraviy ekologik zararning oldini olish bo‘yicha majburiyatlarini belgilovchi muhim huquqiy tamoyillardan biridir.

Mazkur prinsip davlatlardan o‘z hududida amalga oshirilayotgan ekologik xavfli faoliyatlar ustidan samarali nazorat o‘rnatish, ekologik xavflarni oldindan baholash, zarur ehtiyot choralarini ko‘rish va boshqa davlatlar bilan hamkorlik qilishni talab etadi.

Tadqiqot davomida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

Birinchidan, Due Diligence prinsipi davlatlarning ekologik xavflarni oldindan aniqlash va ularning oldini olish bo‘yicha zarur choralarni ko‘rish majburiyatini anglatadi. Ushbu majburiyatning bajarilishi davlat tomonidan amalga oshirilgan choralarning oqilonaligi va yetarliligi bilan baholanadi.

Ikkinchidan, transchegaraviy ekologik ta’sirni baholash davlatlarning xalqaro ekologik majburiyatlarini amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli ekologik xavf tug‘diruvchi yirik loyihalar amalga oshirilishidan oldin ularning qo‘shni davlatlarga ta’siri chuqur o‘rganilishi zarur.

Uchinchidan, davlatlar o‘rtasida ekologik axborot almashinuvi va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish transchegaraviy ekologik zararning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, xalqaro sud amaliyoti Due Diligence prinsipining mazmunini kengaytirib, ekologik ta’sirni baholash, monitoring, oldindan xabardor qilish va maslahatlashuvlarni uning muhim tarkibiy qismlari sifatida shakllantirgan.

Beshinchidan, Markaziy Osiyo davlatlari uchun ushbu prinsipni amaliyotga tatbiq etish alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, Orol dengizi muammosi, transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish va atmosfera havosining ifloslanishi bo‘yicha davlatlararo hamkorlik mexanizmlarini yanada takomillashtirish lozim.

Muallifning yakuniy taklifi sifatida: Xalqaro ekologik huquq doirasida transchegaraviy ekologik xavflarni baholash va nazorat qilishning yagona mintaqaviy mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Ushbu mexanizm davlatlar o‘rtasida ekologik axborot almashinuvi, qo‘shma monitoring, ekologik ta’sirni baholash va favqulodda vaziyatlarda tezkor hamkorlikni ta’minlashi kerak.

Umuman olganda, Due Diligence prinsipiga rioya etish nafaqat davlatlarning xalqaro-huquqiy majburiyatlarini bajarishini, balki ekologik xavfsizlikni ta’minlash, tabiiy resurslarni kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni ham ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. United Nations. Declaration of the United Nations Conference on the Human Environment (Stockholm Declaration). Stockholm, 1972.
2. United Nations. Rio Declaration on Environment and Development. Rio de Janeiro, 1992.
3. International Law Commission. Draft Articles on Prevention of Transboundary Harm from Hazardous Activities. 2001.
4. Convention on Environmental Impact Assessment in a Transboundary Context (Espoo Convention). 1991.

5. Convention on the Protection and Use of Transboundary Watercourses and International Lakes. Helsinki, 1992.
6. United Nations Convention on the Law of the Sea. Montego Bay, 1982.
7. Trail Smelter Arbitration (United States v. Canada). Arbitral Award, 1941.
8. Gabčíkovo-Nagymaros Project (Hungary v. Slovakia). International Court of Justice, Judgment, 1997.
9. Pulp Mills on the River Uruguay (Argentina v. Uruguay). International Court of Justice, Judgment, 2010.
10. Certain Activities Carried Out by Nicaragua in the Border Area (Costa Rica v. Nicaragua). International Court of Justice, Judgment, 2015.
11. ITLOS. Advisory Opinion on Climate Change and International Law. Case No. 31, 21 May 2024.
12. Sands, P., Peel, J. *Principles of International Environmental Law*. Cambridge University Press, 2012.